



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

“BOBURNOMA” TURKCHA VA QOZOQCHA NASHRLARIDAGI SO‘ZLIKLARNING LINGVISTIK TAHLILI

A LINGUISTIC ANALYSIS OF THE GLOSSARIES IN THE TURKISH AND KAZAKH EDITIONS OF “BABURNAMA”

Muhammadiyeva Dilafruz Axtamovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

E-mail: d.muhammadiyeva@mail.ru

ORCID: 0000-0001-6761-462X

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./GZFS8641](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./GZFS8641)

Annotatsiya. “Boburnoma” turkiy adabiyot tarixida betakror yodgorlik bo‘lib, unda muallif o‘z davridagi siyosiy voqealar, madaniy hayot, xalq urf-odatlarini, shaharlar, tabiat va insonlar haqida keng va batafsil ma’lumot beradi. Shu bois “Boburnoma” nafaqat adabiy, balki lingvistik, tarixiy va madaniy izlanishlar uchun ham boy manba hisoblanadi. Bugungi kunda turkiy tillar oilasiga mansub xalqlar – xususan, turk va qozoq olimlari, tarjimonlari hamda adabiyot ixlosmandlari orasida ushbu asarga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Ammo asarda uchraydigan eskirgan yoki hozirgi zamonaviy turkiy tillarda boshqa shaklda mavjud bo‘lgan leksik birliklar, terminlar, frazeologik ifodalar ko‘plab tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, “Boburnoma” asosida tuziladigan turkcha va qozoqcha izohli lug‘at ushbu muammolarning ilmiy yechimini beradi.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, lug‘at, turkcha, qozoqcha, tarjima.

Annotation. “Baburnama” is a unique monument in the history of Turkic literature, in which the author provides extensive and detailed information about the political events of his time, cultural life, folk traditions, cities, nature, and people. Therefore, “Baburnama” serves as a rich source not only for literary studies but also for linguistic, historical, and cultural research. In recent years, interest in this work has been steadily increasing among scholars, translators, and literature enthusiasts of Turkic-speaking peoples, particularly Turkish and Kazakh researchers. However, the presence of archaic lexical units, terms, and phraseological expressions in the text—many of which have either fallen out of use or exist in different forms in modern Turkic languages – may lead to various difficulties in comprehension. From this perspective, an explanatory dictionary of Turkish and Kazakh based on “Baburnama” offers a scholarly solution to these issues.

Keywords: “Baburnama”, dictionary, Turkish, Kazakh, translation.



So‘nggi paytlarda leksikografiya tilshunoslikning eng tez taraqqiy etayotgan va eng tez o‘zgaruvchan sohasi ekanligi yana bir bor isbotlandi. Lug‘at – davr mahsuli, xalq tarixidagi muayyan davrning ko‘zgusi. Uning yuzaga kelishi muayyan tarixiy-madaniy sharoit, nazariy va amaliy tilshunoslikning holati, lug‘atlarga ehtiyoji bo‘lgan turli sohalar taraqqiyoti va yana ko‘pgina jihatlariga bog‘liq. Lug‘atchilik tillarning maqomi, rivojidan ham darak beradi. Muayyan tilda davrga aloqador turli omillarga bog‘liq ravishda lug‘atlarning rang-barang ko‘rinishlari yuzaga kelishi, umuman, lug‘atchilik taraqqiyoti – til va uning egasi bo‘lgan millatning taraqqiyoti bilan bog‘liq. Va omil shu xalq kelajagi haqida gapirish imkonini beradi.

Zamonamizda hayot sur‘ati behad tezlashgan, bugun dolzarb bo‘lib turgan tushuncha ertaga eskiradi. Yaratilayotgan bosma lug‘atlar katta oqim bilan kirib kelayotgan so‘zlarni qamrab olib ulgurmaydi. Narsa, tushuncha, hodisaga izohli lug‘atlarda berilayotgan sharh lug‘at nashrdan chiqib o‘quvchlar qo‘liga yetib bormay eskiryapti. “Lug‘at – bu alifbo tartibida joylashtirilgan yaxlit olam! Agar yaxshiroq o‘ylab ko‘rsangiz, lug‘at – kitoblarning kitobi. U boshqa barcha kitoblarni o‘z ichiga oladi, siz shunchaki undan o‘zingizga kerakli narsa topa bilishingiz lozim...” [Xolmuradova, 2024:279]. Ushbu ta‘rif “lug‘at” tushunchasi paydo bo‘lgandan to bugungi kunga qadar ham o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q. Lug‘at undan muntazam foydalana bilgan kishi uchun chinakam xazina. Zarur ma‘lumotlarni tez va qulay izlab topa bilish zamonaviy shaxsning muhim ko‘rsatkichi. Inson hamma narsani bilishga qodir emas, ammo har qanday vaziyatda bilishi zarur bo‘lgan narsalarni topish imkoniga ega. Lug‘at aynan shu ish uchun maxsus yaratiladi.

Dunyo olimlari tomonidan ham Bobur asarlarining tiliga doir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu boradagi dastlabki urinishlar asarni tarjima qilish jarayonida tuzilgan lug‘atlardan boshlangan. V.Erskin, J.Leyden, A.Kayzer, Pave de Kurteyl, L.U.King, Denisson Ross, keyinchalik A.Alparslon, M.Jonpo‘lat, Yu.Bilol, T.Seyhan, N.Jeylan va boshqa tilshunos va manbashunos olimlar ishlarida Bobur qo‘llagan so‘zlar lug‘ati, ularga izoh va ko‘rsatkichlar berilgan. Masalan, “Boburnoma” tarjimasini bilan shug‘ullangan L.U.King to‘rt mingdan ortiq so‘zni izohlagan. U.Tekston, R.Arat, A.Beverij tarjimalarida ham ko‘plab so‘zlarning izoh va sharhlari berilgan. Shuningdek, asarning hindcha va boshqa tillardagi nashrlarida minglab so‘zlarning izohi berib o‘tilgan. Ayniqsa, turkiyalik olimlar tomonida Bobur asarlari tili, jumladan, uning devonidagi leksik birliklar haqida ko‘plab tadqiqotlar bajarilgan [Hayitov, 2024].

“Boburnoma”ning o‘rganilishi munosabati bilan uning lug‘atini yaratish masalasi ham o‘zining alohida tarixiga ega. Z.Teshaboyeva “Boburnoma” uchun tuzilgan maxsus lug‘atlarning sakkizta ekanligini qayd etadi va ularning batafsil tahlilini beradi [Тешабоева, 2021:37]. “Boburnoma”ning leksikografik nuqtayi nazardan chuqur o‘rganilishi xorijlik olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Bobur asarlari, xususan, uning buyuk qomusiy asari – “Boburnoma”ni 1871-yilda



fransuz tiliga ikki jild holida tarjima qilgan mashhur turkolog olim Pave de Kurteyl 1870-yilda Alisher Navoiy, Bobur va Abulg'azi Bahodirxon asarlariga doir “Sharqiy turk tili” nomli lug‘at yaratdi. Lug‘atning katta qismi aynan Bobur asarlaridagi so‘zlarning fransuzcha izohiga bag‘ishlangan. 2001-yilda qayta nashr etilgan ushbu lug‘atda olti mingdan ortiq so‘z sharhi berilgan bo‘lib, Yevropa xalqi Boburning shoh asaridagi so‘zlar ma‘nosini, asar mazmunini o‘zlashtirishda yillar mobaynida undan foydalanib keladi. Ushbu lug‘at boburshunoslik tarixida, xususan, Bobur asarlari tilini o‘rganishda dastlabki tadqiqot ishlaridan biri sifatida e‘tiborga molikdir” [Xolmanova, 2025:16]. Bu lug‘at keyingi tadqiqotchilar tomonidan leksikografik hamda tekstologik jihatlardan batafsil o‘rganilgan edi [Салимова, 1997].

Bobur asarlarining o‘zbek tilidagi ilk izohli lug‘ati “Boburnoma” nashrlari so‘ngidagi ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Turk tilida “Boburnoma” uchun maxsus lug‘at yaratilmagan, ammo R.R.Arat tarjimasi so‘ngida 131 betli kattagina indeks-lug‘at ilova qilingan. Ushbu lug‘at shaxs otlari, geografik nomlar, mashhur tarixiy voqealar, qabila va urug‘ nomlaridan tashkil topgan. Mavzu qamrovi jihatidan boshqa nashrlardagi Ko‘rsatkichlarga o‘xshasa-da, ulardan har bir so‘zga berilgan batafsil izohi bilan farq qiladi. Masalan, *Sultan Murad Mirza – Muhammed Kasim Mirza ile Rabia Sultan Begim'in o'g'lu; A'ga begim (Sultan Huseyin Mirza ile Payende Sultan Begim'in kizi) 'in kocasi*. Yoki, *Sultan Nigar Hanım – Yunus Han ile Şah Begim'in kızı, Sultan Mahmud Mirzanın karısı. Sultan Mahmud Mirza'nın vefatından sonra, kazak sultanlarından Edik Sultan ile ve bunun ölümünü müteakip, kazak hanı Kasım Han ile evlenmiştir. Sultan Veys Mirza'nın annesi (ölm.1527)* tarzida ifodalanadi. Ushbu indeks-lug‘at 2554 ta so‘zdan tashkil topgan. Har bir so‘zning asarda necha marta ushbu tarjimada qaysi sahifalarda kelganligi ham ko‘rsatilgan.

“Boburnoma” turkcha tarjimasi kitobining ahamiyatli jihatlaridan biri unda 573-669 sahifalarda, ya‘ni 93 betlik 401 ta notlar, ya‘ni qisqacha tadqiqot yoki qaydlar berilgan. Bu qaydlarning yaratilishi haqida muallif shunday deydi: Boburning asari tarjima qilinayotganda, o‘ziga xos ma‘no anglatadigan ibora va istilohlar uchragan joylarda ularni bir necha so‘z bilan tushuntirib o‘tish ehtimol ko‘proq ma‘qul bo‘lardi; biroq ba‘zi texnik sabablarga ko‘ra, buni amalga oshirish imkoni bo‘lmagan. Mazkur izohlar aynan shu kamchilikni qisman to‘ldirish maqsadida keltirilgan.

Avvaliga bu yerda janubiy lahjada aniq mosligi topilmagan yoki hozirga qadar aniqlanmagan, ammo asardagi ma‘nosi muhim deb topilgan iboralarga e‘tibor qaratish ko‘zda tutilgan edi. Keyinchalik bu doira biroz kengaytirilib, ma‘nodosh bo‘lsa-da, turli davr va mintaqalarda bir-biridan ozmi-ko‘p farqli bo‘lgan iboralar hamda faqat ushbu asarga xos bo‘lgan ayrim iboralar ham qo‘shilishi maqsadga muvofiq deb topildi. Asarning Hindistonga oid qismida ko‘plab o‘simlik va hayvon nomlarining mos tushadigan atamaları ustida, bu boradagi masalalarni chuqurroq o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lgan shaxslar



tomonidan katta mehnat bilan ishlangan; ularning natijalari ham bu yerda qisqacha bayon etilgan. Mazkur izohlarda Bobur asarida uchraydigan iboralarni tushunishni yengillashtiruvchi tarqoq ma'lumotlarni imkon qadar bir joyga jamlashga harakat qilingan. Shunga qaramay, bu izohlar masalani har jihatdan hal qiladigan tadqiqotlar bo'lish da'vosidan yiroqdir. Agar bu yo'lda izlanish olib borishni istovchilar uchun biroz bo'lsa-da qulaylik yarata olsa, qilinayotgan mehnat behuda ketmagan bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Boburning asarlarining solishtirilgan matnining nashri zaruratga aylangan. Ham turk yozuv tilining rivojlanish jarayonini ko'rish, ham turk adabiyotida o'ziga xos o'rin tutgan bu turk adibini chuqurroq anglash uchun bu asarlarni yana qayta o'rganish vaqti kelgan. Bu munosabat bilan, bu yerda faqatgina ishora bilan cheklanilgan masalalarning tadqiqidan kengroq va chuqurroq natijalar kutish mumkin. Izohlarni diqqat bilan o'qib chiqadiganlar, madaniyat va ilm sohasida yana qancha muhim masalalarga e'tibor berish kerakligini va imkon qadar vaqt yo'qotmasdan ularni amalga oshirish zarurligini angelaydilar. Bu borada hozirgacha yaratilgan ayrim, kam sonli asarlarning ham qanchalik yetarli emasligini ko'rishadi. Bu yo'lda zarur bo'lgan tadqiqotlarni boshi berk ko'chaga kiritib yubormaslik uchun, har xil davrlarda yozilgan va son jihatdan ham unchalik ko'p bo'lmagan muhim asarlarni ilmiy yondashuv asosida yana bir bor o'rganish va bugungi kunda keng muomalada bo'lib yurgan, ammo yetarli darajada puxta bo'lmagan tadqiqotlarni muhimligi tan olingan holda, ammo ulardan foydalanmaslik sharti bilan kutubxonalar muzey qismiga topshirish lozimdir [Babur, 1987:573].

Izohlarni tayyorlashda Beveridge, K. Grönbech, Ebû Hayyân, İbn Mühenna, Index, Kâşgari, K. K. Yudaxin, King, Qutadg'u bilig, Pavet de Courteille kabi necha tarixiy manbalardan foydalanilgan. Ushbu manbalar o'rganilayotgan mavzu yuzasidan yana ham aniqroq ma'lumot olinishiga sabab bo'lgan deyish mumkin. Bir necha izohni ko'rib chiqamiz

Baburi yozuv Bobur tomonidan 910-hijriy yilda (1504–1505), Kobulda yaratilgan bo'lib, turli shakl va qoidalari mavjud bo'lgan, oxirgi marta 935-hijriy jumodiyul oxir oyining 17/18 kunlarida Humoyun va Komronga Hindistondan yozuv namunalari va qisqa risolalar bilan yuborilgan bu alifbo haqida hozirgacha aniq ma'lumot mavjud emas.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ayon bo'lishicha, ko'plab namunalari mavjud bo'lishi kerak bo'lgan ushbu yozuv qanday asoslarga ko'ra yaratilganligi haqida mulohaza yuritishning imkoni yo'q. Boburning majlisida kimdir bu yozuvni darhol o'qib, qoidalarini belgilab, biror narsa yoza olganligi shuni anglatadiki, bu yozuv butunlay yangi emas, balki o'sha muhitda ma'lum bo'lgan yozuvlardan biri bilan yaqin aloqada bo'lishi mumkin (Ayrim adabiyotchilar “Xatti boburiy”ning arab alifbosi asosida ishlab chiqilganini, Bobur bunda turkiy tovushlar uchun harflar biriktirgani haqidagi fikrlarni ilgari suradi).



Bu hujjat nafaqat Bobur shaxsi uchun, balki turk madaniyati tarixi uchun ham muhimdir. Shu sababli, Afg'oniston va Hindistonda Bobur va uning avlodi bilan bog'liq muhitlarda bu yozuvning biror namunasi bir kun kelib tasodifan topilishini kutish bilan cheklanmay, bu borada maxsus izlanishlar olib borish zarurligini eslatish joizdir [Babür, 582].

Bag'lan (yoki bak'lan) – suv qushi bo'lib, a'lo darajada suzadi, sho'ng'iydi va baliq bilan oziqlanadi. U to'da bo'lib yashaydi; uyasini qoyatoshlar orasida, daryo va ko'l bo'ylarida hamda daraxtlar ustida quradi. Bu qushning 36 turi ma'lum. Ulardan ba'zilar ayniqsa dengiz qushi hisoblanadi (*Phalacrocorax pelagicus Pall.*), boshqa kichikroq turi esa (*Ph. pygmaeus Pall.*) O'rta yer dengizi mintaqasiga xosdir. Slokar inostr. slov (Moskva, 1937) bu *bak'lan* atamasini yunoncha *pelekan* so'zi bilan taqqoslaydi, biroq bu to'g'ri bo'lmasa kerak.

“Bag'lan” yoki “bak'lan” so'zining boshqa bir ma'nosi ham: Radloffda “bag'lan” (qozoqcha) “katta va semiz” degan ma'noni bildiradi (masalan, *bag'lan koza bũ* – katta va semiz qo'zi). Kaşgari esa “bak'lan kozi”ni “yangi tug'ilgan va semiz qo'zi” deb izohlaydi (turkcha tarjimada bor, ammo Brockelmannda yo'q). Qarang: Raquette II, *pak langenç* – qo'zi (yangi tug'ilgan qo'y).

BAG'RI-KARA (Ko'kragi qora) – (tarjima, s. 52 va 317): aslida qushning rangi asosida berilgan sifat bo'lib, keyinchalik qushning nomi sifatida ishlatilgan. Beveridjga ko'ra, bu qush “qum kaptari” (*Pterocles arenarius*) hisoblanadi. Hindistonda uchraydigan turi (*Pterocles exustus*) esa biroz kichikroq bo'lib, ko'kragidagi qora rang ham biroz kamroq bo'ladi. Bu ikkinchi tur Hindistonda inglizlar orasida “tog' kaptari” deb ataladi, chunki uning uchish usuli kaptarga o'xshaydi [Babür, 584].

BAXSHI – Bobur asarida qo'llanilishi: “...bu xazinani qo'riqlashga Dost Nosir Bek, Qul Boyazid Bekavul va baxshilardan Muhammad Baxshi tayin qilindi...”, “...Shah Bek, Xoja Muhammad Ali, Shah Mahmud va baxshilardan Taga'i Shah Baxshi tayin qilindi”. s. 288: “...ba'zi beklar va ichkilar (saroy a'zolari) baxshi va devonlar bilan birgalikda... askar ro'yxatini tuzish, ularni sanab chiqish uchun... kemalarga tayin qilindi”. Ism bilan birga qo'llanilishi: Karlug'ach Baxshi, Shoh Husayn Baxshi, Shoh Mansur Baxshi va hokazo.

Yuqoridagi misollardan Bobur *baxshi* atamasini aynan qanday ma'noda ishlatganini aniq belgilash qiyin. Bu so'z faqat *kotib* (yozuvchi) ma'nosida ishlatilgan bo'lishi mumkin yoki bu *harbiy moliyaviy ishlar bilan shug'ullanuvchi mansabdor* degan ma'noni ham anglatishi ehtimoldan xoli emas.

Uyg'ur matnlarida tez-tez uchraydigan “baxshi” (yoki “bakshi”) (< xitoycha *po-shi*, qadimgi talaffuzi *pak-shi*) atamasi ko'proq diniy matnlarda ishlatiladi va quyidagi ma'nolarni anglatadi: *o'qituvchi*, *yo'l ko'rsatuvchi*, *hidoyat beruvchi* va hokazo. *Uigurica*, III, 3646: “sizni teg edgü baxshi birle” (sizdek yaxshi baxshi bilan), 576-12: “ötrü taytsısı... baxshısına inçe tip ötüdü...” – “shogirdi... ustoziga shunday deb arz qildi (so'radi)...” “Şästrakära baxshi” – “Shastrasoz baxshi (ustoz)” shogirdiga shunday dedi (javob berdi), s. 461: “tengri

baxshi” (ilohiy ustoz), s. 38: “baxshilarning, ulug'larning o'g'itlari”. Bu atamaning keyinchalik olgan ma'nolari va qo'llanilgan sohalari haqida qarang: Fuad Köprülü, *İslom Ansiklopedisi*, “bahşi” moddasiga.

Aslida Uyg'urcha “baxşi” atamasi o'z ifoda qilgan ma'nolari bilan bevosita yoki bilvosita aloqador holda quyidagi tushunchalarni o'z ichiga olgan:

1. Kotib, ayniqsa uyg'ur yozuvi bilan yozishni yoki ushbu yozuv ishlatilgan hududlarda so'zlashilgan tillarni bilgan kotib. Qarang: *Codex Cumanicus*, “bahşi” – kotib, yozuvchi. Usmonli jamiyatida uyg'ur yozuvi va sharqiy turk tilida yozgan, ba'zan Markaziy Osiyo turkiy guruhlari bilan yozishmalarda qatnashgan shaxslarning ismlarining oxirida doimo “bahşi” unvoni qo'shilganini ko'ramiz. F.Köprüluning fikricha (o'sha manba), Boburiylarga oid barcha manbalarda “bahşi” so'zi “kotib” ma'nosida, “bahşigër” esa “kotiblik” ma'nosida qo'llanilgan.

2. Asosiy vazifasi yozish va ro'yxatga olish bo'lgan, moliyaviy ishlarga mas'ul bo'lgan amaldorlar. Qarang: Fuat Köprülü (o'sha asar): Bobur davridayoq armiya boshqaruvi va moliyaviy ishlari bilan shug'ullanuvchi mansabdor shaxslarga “bahşi” deyilganini Haydar Roziy aniq ta'kidlagan va ularni “tavochi”lar bilan birga zikr etgan. *Akbarnoma* asariga ko'ra, “ordu bahşiligi” (“bahşigër-i jünüd”) muhim lavozim bo'lgan. Grose esa bu lavozimni askarlarga maosh tarqatadigan moliya xodimi sifatida izohlaydi.

3. Tabib, xalq tabibi, jarroh. (Bu har xil din va mazhablarda xalqning ma'naviy iztiroblarini yengillashtirishga xizmat qilgan o'qimishli kishilar, dastlab duolar va “uftirish”lar orqali, keyinchalik esa tajribalar asosida dori-darmonlar bilan odamlarni davolagan bo'lishi mumkin). Qarang: tre. s. 115 – “*Xon yarasini ko'rish uchun Ateka-Baxşi ismli mo'g'ul jarrohini yubordi*”. Mo'g'ullarda yaxshi jarrohlarga ham “baxşi” deyiladi. Bu jarrohlikda nihoyatda mohir edi. Qiyoslang: Radloffda “baxşi” (sartcha) – “simpatik shifokor”; “baxşi” (tarixiy chog'.) – “sehrGAR tabib”; Raquette II'da – “baxşi” – kasalliklarga qarshi duo o'qiydigan odam.

4. Diniy marosimlarni bajaruvchi va shu jihati bilan xalq tabibliigi bilan ham shug'ullanuvchi shomon. Qarang: Radloff, “bakar” (qozoqcha) – kopuz yoki tayoq bilan shomonlik qiluvchi; “baksılıq” – shomonlik qilish, sehrGARlik. Qirg'iz tilida “bakşi” – shomon, xalq tabibi (oq baxşi – yaxshilik qiluvchi, “qora baxşi” – kattaroq kuchga ega, “jinli baxşi” esa ruhlar bilan aloqador deb hisoblangan).

5. Ehtimol shomonlik bilan bog'liq bo'lgan – qo'shiqchi va sozanda. Qiyoslang: Radloff, “baxşi” (turkmancha, Xiva lahjasi) – xalq qo'shiqchisi, sozanda; “baxşi” (sharqiy turkcha) – sayyor qo'shiqchi [Babür, 585].

Keng qamrovli ushbu ma'lumotlar har bir so'zning ham semantik, ham etimologik tadqiqini amalga oshirishga qanday yondashish kerakligi haqida yo'nalish beradi.

“Boburnoma” yuzasidan qozoq tilida ham maxsus lug'at yaratilmagan, ammo tarjimon I.Jemeney ana shunday lug'at yaratish ustida ish olib bormoqda.



I.Jemeney tarjimasida [Бабыр, 2022] satr osti izohlar berilmagan, bundan kelib chiqadiki, nashrlar o‘rtasidagi farqlar ko‘rsatilmagan. Kitob oxirida Esimдер (Ismlar) va Жер-су аттары (Geografik nomlar) beriladi. Bu ko‘rsatkich qozoqcha tarjima asosida berilganligi uchun tabiiy ravishda o‘zbek tilidagi miqdordan ancha farq qiladi.

1-jadval.

Qozoqcha tarjimada ismlar ko‘rsatkichi.

A-45	B-0	Д-8	И-5	Л-1	О-3	Р-3	У-8	Ф-2	Ш-36
Ә-40	Г-0	Е-7	К-9	М-97	Ө-0	С-35	Ұ-11	Х-11	Ы-1
Б-21	Ғ-4	З-9	Қ-70	Ҳ-7	П-11	Т-17	Ү-5	Һ-1	І-0
JAMI: 469 ta								Ч-0	Я-3

Ko‘rinib turganidek, qozoqcha matnda eng ko‘p uchraydigan ismlar (97-36 oralig‘ida) A, Ә, Қ, М, Ш harflari bilan boshlanadi. B, Г, Ө, Ч, I harflari bilan boshlanadigan ismlar asarda uchramaydi.

2-jadval.

Qozoqcha tarjimada geografik nom ko‘rsatkichi.

A-19	B-2	Д-9	И-20	Л-3	О-4	Р-2	У-0	Ф-7	Ш-14
Ә-6	Г-4	Е-0	К-24	М-18	Ө-3	С-15	Ұ-2	Х-18	Ы-0
Б-15	Ғ-3	З-5	Қ-18	Ҳ-9	П-10	Т-10	Ү-3	Һ-5	І-1
JAMI: 253 ta								Ч-1	Я-3

Geografik nomlarda eng ko‘p (18-24 oralig‘ida) A, И, К, Қ, М, X harflari bilan boshlanadigan nomlar qayd etildi. Ushbu ismlar statistikasi S.Hasanov nashri bilan deyarli mos keladi, ko‘rsatkichlar o‘zbekcha ilmiy-tanqidiy matn tadqiqida tahlil qilinganligi bois, ortiqcha tafsilotlar keltirmadik.

B.Kojabekulu tarjimasi oxirida tushunarsiz so‘z va iboralarga izohlar berilgan. Ularning umumiy miqdori 214 ta. Izohlarni tizimlashtirishda avval matn ichiga kerakli so‘zga qavs ichida raqam qo‘yilgan, masalan, [14] shaklida, keyin kitob oxirida ayni raqam ostida kerakli so‘z izohlangan. So‘zlarning qamrov doirasi chegaralanmagan, har qanday mavzudagi so‘z bo‘lishi mumkin. Masalan, shaxs nomlari (*Ахмет хан, Бабыр Мирза, Бекзат* kabi), joy nomlari (*Андукан, Исфара, Кухақ*), mansab nomlari (*бақсы, доруға, кисра*), fitonim va zoonimlar (*амридфал, гал-гал лиму, гулар*), mavhum otlar (*гази, дастур*), narsa nomlari (*ғижжақ, зуннар, чанг*) kabi.

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma” tili barcha turkiy tillar uchun mumtoz bir til bo‘lib qolgan hamda uning mazmunini to‘liq anglash uchun maxsus lug‘atlarga ehtiyoj katta. O‘zbek olimlari mana shu ehtiyojni o‘z vaqtida anglaganliklari tufayli bu tillarda adib asarlari uchun bir qancha lug‘atlar mavjud.



Turk va qozoq tillarida ham mana shunday lug‘atlar tuzilsagina, tarjimalardagi semantik ekvivalentliklar bilan bog‘liq kamchiliklarga barham beriladi. Bunday lug‘atning yaratilishi “Boburnoma”dagi leksik birliklar mazmuni, ularning semantik ko‘lami va turkiy tillarda qanday ifodalanishi aniqlash, eski o‘zbek tili va zamonaviy turkiy tillar orasidagi leksik evolyutsiyani kuzatish, bunday lug‘at turkiy xalqlarning mushtarak madaniy xotirasini tiklash, “Boburnoma”ni turk va qozoq tillariga iloji boricha yaqin va to‘g‘ri tarjima qilish imkoni kabi bir qator ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bobur merosi umumturkiy qadriyat sifatida qabul qilinayotgan bugungi kunda, bunday lug‘atlarning yaratilishi turkiy xalqlarning mushtarak madaniy xotirasini tiklashda muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar:

1. Babür Z. M. Vekayi. Babür'un Hatıratı. – Ankara, 1987. – B. 573.
2. Бабыр Зәһиреддин Мұхаммед. Бабырнама. Түркі тілінен қазақшаға аударған және алғы сөз, түсініктер жазған Ислам Жеменей. – Алматы: Нұрлы Әлем, 2022.
3. Hayitov Sh. Turkiy boburshunoslikning tadrijiy takomili. Filol.fan.d-ri...diss. – Toshkent, 2024.
4. Xolmanova Z., Hayitov Sh., Muhammadiyeva D. Bobur asarlari lug‘ati. – Toshkent, 2025.
5. Салимова Ф. Лексикографические и текстологические характеристики “Восточно-тюркского словаря” Паве де Куртейла и перевод “Бабурнамы”. Диссертация на соискание учёной степени канд.филологич. наук. – Ташкент, 1997.
6. Тешабоева З. “Бобурнома”нинг инглизча таржималаридаги фразеологик birlikларнинг когнитив ва лексикографик тадқиқи. Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2021.